QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Botaxanov D.X
Mustaqil tadqiqodchi:

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligi masalasi iqtisodiy adabiyotda olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq qilingan.K.Makkonell va S.Bryuning xulosasiga ko'ra, "iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan kamyob resurslar birligining miqdori bilan olinadigan ma'lum bir iste'mol mahsulotini miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni tavsiflaydi.

Xarajatlarning mazkur hajmidan olinadigan ko'p miqdordagi mahsulotlar samaradorlikni oshishini anglatadi".Ushbu xulosadan ko'rish mumkinki, bu yerda iqtisodiy samaradorlik imkon qadar kamroq xarajat qilib ko'proq miqdordagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'zda tutmoqda.

V.Svobodinaning fikriga ko'ra, ishlab chiqarishning samaradorligi – bu iqtisodiy kategoryai bo'lib, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning mohiyatini aks ettiradi va iqtisodiy qonunlar tizimi bilan belgilanadigan asosiy maqsadlarga erishish darajasini tavsiflaydi.

L.Abalkinning xulosasiga ko'ra, samaradorlik shunday shaklki, uning vositasida vaqtni tejashning umumiy qonuni amal qiladi va namoyon bo'ladi, ishlatilgan resurlar birligiga to'g'ri keladigan ma'lum natijani tavsiflaydi.

L.Abalkinning xulosasida samaradorlik ma'lum vaqt birligi ichida ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini oshirish imkoniyati sifatida talqin qilinmoqda.

Haqiqatdan ham, mehnat unumdorligining oshishi vaqtni tejash qonunining namoyon bo'lish shakllaridan biri hisoblanadi.N.Tyapkin va N.Paninaning xulosasiga ko'ra, qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlashda asosiy e'tibor moliyaviy mablag'larni yo'naltirishning samarali variantlariga, masalan, yuqori sifatli urug' sotib olish, qo'shimcha o'g'it sotib olish, unumdorligi yuqori bo'lgan texnikalarni sotib olishga qaratish kerak.

Ushbu xulosada iqtisodchi olimlar faqatgina qishloq xo'jaligida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash xususida fikr bildirishgan.

I.Usolsev qishloq xo'jaligi subyektlarining iqtisodiy samaradorligini quyidagi uch turini ajratib ko'rsatadi va ularning har birini tavsiflaydigan ko'rsatkichlarni keltiradi:

1. Xalq xo'jaligi samaradorligi ko'rsatkichlari:

mamlakat aholisiga, qishloq xo'jaligida band xodimlarga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsuloti;

mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligi koeffitsiyenti;

atrof-muhitni saqlash va yaxshilash ko'rsatkichlari.

2. Qishloq xo'jaligining hududiy iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari:

hududning har bir aholisiga, qishloq xo'jaliigda band bo'lgan har bir xodimga to'g'ri keladigan yalpi hududiy qishloq xo'jaligi mahsuloti;

asosiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ularning me'yoriy darajasiga nisbatan darajasi;

atrof-muhitni saqlash va yaxshilash ko'rsatkichlari.

3. Tijoriy samaradorlik ko'rsatkichlari:

qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar (moliyaviy barqarorlik, to'lovga qobillik, rentabellik);

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kapital quyilmalarning darajasi;

sug'oriladigan va yuviladigan yerlarni aylanmaga kiritish.

Ko'rinib turibdiki, I.Usolsev qishloq xo'jaligi samaradorligi ko'rsatkichini uch guruhga ajratgan. Ammo, xalq xo'jaligi ko'rsatkichlari tarkibiga qishloq xo'jaligida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar miqdori va darajasi ko'rsatkichini kiritmagan. Bundan tashqari, u qishloq xo'jaligining tijoriy ko'rsatkichlariga qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni kiritmagan.

Ye.Matveevaning fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

– umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish rentabelligi, mahsulotlar tannarxi, yalpi daromad, sof daromad, foyda);

– mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar (bir xodimga to'g'ri keladigan yalpi va tovarli mahsulot, ishlab chiqarish va boshqaruv xodimlarining soni, mehnatni avtomatlashganlik darajasi);

– asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish ko'rsatkichlari (fond sig'imi, investitsiyalar hajmi, investitsiyalarni qoplash muddati, asosiy fondlarni yangilanish koeffitsiyenti);

– joriy moddiy xarajatlarning samaradorligini tavsifdlovchi ko'rsatkichlar.

Ye.Matveeva tomonidan keltirilgan ko'rsatkichlar tizimida mehnat unumdorligi, likvidlilik, to'lovga qobillik ko'rsatkichlari mavjud emas.

Prof. J.Sinkining fikriga ko'ra, rivojlangan davlatlarda hukumat qishloq xo'jaligi subyektlarini moliyalashtirish jarayonini faol tarzda qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, AQSHda tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga berilgan kreditlarning foiz stavkasini bir qismi davlat mablag'lari hisobidan subsidiyalanadi. Shuningdek, fermer xo'jaliklariga depozit, kredit va hisob-kitob xizmati ko'rsatadigan tijorat banklariga fermerlarning yer maydonlari va binolarini garovga olgan holda 40-yilgacha muddatga kredit berish huquqi berilgan.

Ye.Ijmulkinaning xulosasi bo'yicha dunyoning yetakchi agrar iqtisodiyotlarida qishloq xo'jaligi darajasi va texnologiyalari bo'yicha texnologik rivojlanishning oltinchi darajasiga to'g'ri keladi va uning rivojlanishi innovatsiyalarni nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, muqobil ernergetika, yangi axborot texnologiyalari sohalariga muvaffaqiyatli transfer qilinganligi bilan bog'liqdir.

V.Kursevning xulosasiga ko'ra, qishloq xo'jaligida samaradorlikning quyidagi turlari mavjud:

– ishlab chiqarish-texnologik samaradorlik;

– ishlab chiqarish-iqtisodiy samaradorlik;

– ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik;

– ekologik samaradorlik.

V.Kursev o'zining ilmiy maqolasida qishloq xo'jaligida samaradorlikning har bir turini asoslab berishga harakat qilgan. Ammo, ishlab chiqarish-iqtisodiy samaradorlikni yoritishda ko'proq ishlab chiqarish xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni yoritgan. Foyda, sof daromad, moliyaviy faoliyatdan olingan daromad kabi kategoriyalarni o'rganishga e'tibor qaratmagan.

B.Rivjaning fikriga ko'ra, iqtisodiy samaradorlik iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirish darajasini aks ettiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ishlab chiqarishning natijaviyligi bo'lib, olingan natijalar bilan tirik va buyumlashgan mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbat shaklida namoyon bo'lib, o'z navbatida, ishlab chiqarish resurslarining takomillashganligi va ulardan foydalanish samaradorligining darajalarini aks ettiradi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Yu.Umavovning xulosasiga ko‘ra:

– samaraning o‘zi mehnat faoliyatini yetarli darajada tavsiflamaydi, chunki, resurslar qanday bahoda jalb qilinganligini ko‘rsatmaydi;

– bir turdagi resursni ishlatish orqali yuqori yoki past samaraga erishish mumkin;

– u yoki bu tadbirning maqsadga muvofiqligi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichini aniqlash imkonini beradi;

– samaradorlik kategoriyasining mohiyati resurslarni xarajatlar bilan taqqoslaganda namoyon bo‘ladi.

Yu.Kudryashova va Ye.Krestyanovalarning xulosasiga ko‘ra, qishlqo xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini klasterli tahlil asosida aniqlashning maqsadga muvofiqligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

– jahon tajribasi ko‘rsatadiki, klasterlar agrar ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi;

– klasterli tahlil qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini aniq segmentlagan holda, ularni ishlab chiqarish samaradorligini aniq baholash imkonini beradi.

A.Tixonovaning ilmiy tadqiqoti natijalari ko‘rsatdiki, qishlqo xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini davlatning quyidagi shakllardagi moliyaviy qo‘llab-quvvatlashisiz ta’minlashning imkoni yo‘q:

– imtiyozli kreditlash;

– imtiyozli tashqi savdoli tartibga solish;

– soliq siyosati orqali rag‘batlantirish;

– baholi tartibga solish;

– byudjetdan subsidiyalash.

Adabiyotlar

1. Грязнова А.Г. Экономическая теория национальной экономики и мирового хозяйства. М: ЮНИТИ,1998. – 328 с.
2. Тяпкин Н.Т., Панина Н.А. Критерии и показатели оценки эффективности использования ресурсов в сельском хозяйстве//Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. – Москва, 2005. - № 3. - С. 14-16.
3. Усольцев И.В. Повышение устойчивости сельскохозяйственного развития на основе диверсификации. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Москва, 2013. – 23 с.
4. Юсупов М.С. Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларинии такомиллаштириш. И.ф.б. фалсафа докт. Дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 56 б.
5. Шохъазамий Ш.Ш. Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. д.э.н. – Ташкент, 2011. – 39 с.
6. Шодмонов Э.Ш. Ўзбекистонда аграр ислоҳотларни чуқурлаштиришда банклар фаоллигини оширишнинг асосий йўналишлари. Иқт. ф.н. илм. даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент: БМА, 2005. – 22 б.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.